

## PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI MASALALARI

Umarova Dilnoza Dilmurod qizi,

Quvvatova Kamola Oybek qizi

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 3- bosqich talabalari

Toshkent shahridagi YODJU texnika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7109423>

**Annotasiya:** Butun dunyo bugungi kunga kelib, kundan kunga rivojlanib bormoqda. Zamonaliv axborot texnologiyalari asrida yashar ekanmiz mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Bu orqali biz bo'lajak kadrlar o'zimizni qanday tutishimiz, atrofimizdagi insonlar bilan qanday munosabatga kirishishimiz ortidan kasbiy kompetenetligimizni barchaga ko'rsatib boramiz. Bu esa bizdan o'z kasbimizga bo'lgan alohida bilim, ko'nikma va malakalarni talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kompetentlik, pedagogning kasbiy kompetentligi, pedagogning o'z ustida ishlashi.

### ВОПРОСЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА

**Аннотация:** Весь мир развивается день ото дня. Поскольку мы живем в век современных информационных технологий, способность выдерживать сильную конкуренцию, занимающую приоритетное место на рынке труда, требует от каждого специалиста наличия профессиональной компетентности и ее последовательного повышения. Благодаря этому мы, будущие сотрудники, покажем всем свою профессиональную компетентность тем, как мы ведем себя и как мы взаимодействуем с окружающими нас людьми. Это требует специальных знаний, навыков и квалификации для нашей профессии.

**Ключевые слова:** Компетентность, профессиональная компетентность, компетентность, профессиональная компетентность педагога, работа педагога над собой.

### ISSUES OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE PEDAGOG

**Abstract:** The whole world is developing day by day. As we live in the age of modern information technologies, being able to withstand the strong competition that takes priority in the labor market requires every specialist to have professional competence and to increase it consistently. Through this, we, future personnel, show our professional competence to everyone by how we conduct ourselves, how we interact with the people around us. This requires special knowledge, skills and qualifications for our profession.

**Key words:** Competence, professional Competence, competence, pedagogue's professional competence, pedagogue's work on himself.

### KIRISH

"Kompetentlik" tushunchasi ta lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda kompetentlik "noan anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxasisning o'zini qanday tutishi, atrofdagilar bilan qanday muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatar ekan. Bundan kelib chiqadiki har bir shaxsning o'zini qay holatda tutishi, yurish turishi kabi xususiyatlari kompetentligi tushunchasiga mos keladi va bu jarayon insonda yillar davomida o'r ganib borishi natijasida yuzaga keladi. Yosh o'sib kelayotgan avlod bu kabi hislatlarni eng avvalo o'z oilasi va birinchi o'rnak olgan holda o'zida tatbiq etadi [ 3 ].

## **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Kompetentlik atamasi «samaradorlilik», «erishish», «muvaqqatiyatlichkeit», «tushunish», «natijalilik», «ega bo lish», «sifat», «miqdor» sozlari yordamida ta riflanadi, shu bilan birga ko'pgina mualliflar uni tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. [3]. L. Spenser va M. Spenserlarning ta kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o'chish va xususiyatlarini aniqlash qiyinchiligi bilan ortga suriladi.

Dj. Raven kompetentlikni biror bir obyekt yoki obyektlar sinfiga ko'ra biror sohaga tegishliliqi bilan baholash kerak - deb hisoblaydi. Natijada ma'lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo'ldi.

U shaxs kompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilgan holdagini aniqlanishi ma'noga ega bo'ldi - deb tushuntiradi [5].

Kasbiy kompetentlik ayni damda pedagogdan nafaqat bilim, ko'nikma, malakanibalki har bir mutaxassisning o'z yo'nalishi bo'yicha maxsus tayyorgarlik, integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini ko'rsatib o'tadi va nazarda tutadi. Buncha yaqqol misol qilib o'qituvchining tayyorgarligini ko'rsatishimiz mumkin, ya'ni har bir o'qituvchi ertangi darsi uchun alohida tayyorgarliklar ko'radi, o'z kasbini sitqidildan, kamchiliklarsiz bajarishga harakat qiladi. Va bu o'rinda u bu jarayonda namuna sifatida ham ishtiroy etadi. Shuning uchun ham kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rGANISHNI, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Hozirgi kunda ta limda texnologiyalarning rivojlantirishiga borishi sababli bu amallarni qo'llash yanada osonlashib bormoqda. Shu bois o'qituvchining kompetentligini oshirish yo'llari ko'payib bormoqda. Bu orqali mutaxassisning kasbiy kompetentligi murakkab jarayonlarda, noaniq vazifalarni bajarishda, bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalananishda va kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishida yaqqol namoyon bo'ldi.

## **TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA**

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir. Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis, o'z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o'zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llay oladi. O'zbekiston sharoitida ham pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning o'ziga xos jihatlari o'rGANILGAN bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

## **XULOSA**

Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslarni tashkil etadi: Kasbiy, pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishslash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi [4]. O'qituvchining o'z ustida ishslashini, kasbiy BKMni takomillashtirib borishi, faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashishi, kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishishi, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirishi, salbiy odatlarni bartaraf etib borishi va ijodiy sifatlarni o'zlashtirishi orqali ko'rishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari. Psixol fan nom dissavtoloyihasi. – Toshkent: 2002
2. . . . . - 2009 //
3. Xudayqulova F.B. “Bo’lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”
4. B. Nazarova “Pedagogga xos kasbiy kompetentlik”
5. wikipedia.org
6. <https://azkurs.org/kompetentlik/tushunchasining/mohiyati.html>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lajak-pedagoglarda-kasbiy-kompetentlikni-shakllantirishning-o-ziga-xos-xususiyatları>